Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
1-bosqich Maktabgacha ta'lim(dual) yo’nalishi talabalariga 1-semestr uchun
« Ta'lim, jamiyat va madaniyat» fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og'zaki

TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2026-yil 14-oktabr

Fan dasturdagi mavzu tartib raqami	Mavzu	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi
1	Erta bolalik ta’limida ta’lim, jamiyat va madaniyat tushunchasi	Erta bolalik ta’limi tushunchasi qaysi davrni o‘z ichiga oladi va qanday tizimli jarayon hisoblanadi?	Nima uchun zamonaviy pedagogikada erta bolalik davridagi ta’limni faqat bilim berish deb tushunish eskirgan hisoblanadi?	Ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda qanday ta’riflanadi va u qaysi ikki o‘zaro bog‘liq jarayon bilan bog‘liq?	Zamonaviy maktabgacha pedagogikada o‘yinga asoslangan integratsiyalashgan mashg‘ulotlarning an’anaviy qat’iy darslardan ustunligi nimada?	“Ta’lim – Jamiyat – Madaniyat” uchligida madaniyatning tizim mazmuni va qadriyatlar o‘zagi ekanligini hisobga olsak, madaniy ildizlardan uzilgan ta’lim qanday oqibatlarga olib keladi?
1	Erta bolalik ta’limida ta’lim, jamiyat va madaniyat tushunchasi	Bola psixik rivojlanishida 0–6 yosh oralig‘ining o‘ziga xosligi nimada namoyon bo‘ladi?	Agar erta bolalikdagi “senzitiv davr” imkoniyatlaridan o‘z vaqtida foydalanilmasa, keyingi yosh bosqichlarida qanday o‘zgarishlar yuz berishi mumkin?	Ijtimoiylashuvning sub’ektiv-ob’ektiv va sub’ektiv-sub’ektiv yondashuvlari o‘rtasidagi asosiy farq nimadan iborat?	O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda “Takomillashtirilgan Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (uchinchi nashr) qanday tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan?	Ta’limni madaniyatni saqlovchi va jamiyatni yangilovchi “ko‘prik” sifatida baholagan holda, bugun bog‘chada shakllantirilgan ko‘nikmalar ertangi jamiyat qiyofasini qanday belgilashini asoslang?
1	Erta bolalik ta’limida ta’lim, jamiyat va madaniyat tushunchasi	Zamonaviy pedagogika va psixologiyada erta bolalik ta’limi qaysi uchta fundamental tushunchaning o‘zaro uyg‘unligi asosida o‘rganiladi?	Ota-onaning bolaga bo‘lgan munosabati va tarbiya uslubi bolaning kelajakdagi intellektual salohiyati hamda xatti-harakatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?	Bola ijtimoiylashuvi jarayoni qaysi uchta asosiy sohada amalga oshiriladi?	Bola ijtimoiylashuvida birlamchi ijtimoiylashuv (oila), ikkilamchi ijtimoiylashuv (ta’lim muassasasi) va keng ijtimoiy muhit (mahalla, OAV, internet) omillari qanday o‘zaro uyg‘unlashadi?	Jamiyat ijtimoiy buyurtmachi va harakatlantiruvchi kuch sifatida ta’lim talablari bilan ziddiyatga kirishsa, bolada qanday psixologik-axloqiy muammolar yuzaga kelishi mumkin va uni qanday bartaraf etish mumkin?
1	Erta bolalik ta’limida ta’lim, jamiyat va madaniyat tushunchasi	Neyrobiologiya va yosh davrlari psixologiyasida bolaning ilk yillari qanday atama bilan e’tirof etiladi va bu davrda miyaning qaysi xususiyati yuqori bo‘ladi?	Kichkintoyning qog‘ozga chizishi yoki uni yirtishi jarayonida ota-onalarning ortiqcha cheklov qo‘yishi bolaning rivojlanishiga qanday ta’sir qiladi?	Turli yosh davrlariga mos keluvchi yetakchi muomala va faoliyat turlarini sanab bering (go‘daklikdan o‘spirinlikkacha)?	Zamonaviy axborot makoni va internetning bolalar dunyoqarashi hamda ruhiyatiga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi jihatlari qanday namoyon bo‘ladi?	Uri Bronfenbrennerning “Ekologik tizimlar nazariyasi” asosida bolaning mikromuhiti, mezomuhiti va makromuhiti o‘rtasidagi uyg‘unlik buzilsa, bu shaxs kamolotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
1	Erta bolalik ta’limida ta’lim, jamiyat va madaniyat tushunchasi	Shaxs rivojlanishining asosiy yo‘nalishlariga kiruvchi kognitiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanish nimalarni o‘z ichiga oladi?	Nima sababdan bolani tarbiyalashda maqtovning me’yoridan oshishi ham, jazoning me’yoriga yetmasligi ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?	Ijtimoiylashuv omillari qanday guruhlarga bo‘linadi va sotsium (yoki mikrosotsium) deb nimaga aytiladi?	Jismoniy nuqsonli bolalarni jamiyatga integratsiyalashuvida maxsus pedagogika va ijtimoiy-pedagogik ishning asosiy maqsadi va yo‘nalishlari nimalardan iborat?	Milliy urf-odatlar, xalq o‘yinlari va og‘zaki ijodni erta bolalik ta’limiga singdirish bolada ham milliy o‘zlikni, ham umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un shakllantirishga qanday xizmat qiladi?
1	Erta bolalik ta’limida ta’lim, jamiyat va madaniyat tushunchasi	Masaru Ibukoning “Uchdan keyin kech” asarida bolaning rivojlanishi uchun eng sezgir va shakllanuvchan davr sifatida qaysi oraliq ko‘rsatiladi?	Masao Nagataning farzandlariga bir vaqtning o‘zida beshta tilni o‘rgatish tajribasi bolalarga ta’lim berishda nimani ko‘rsatadi?	Ijtimoiy maqom (tug‘ma va qo‘lga kiritilgan) hamda ijtimoiy rol tushunchalarining mazmunini tushuntiring?	Bola rivojlanishida biologik irsiyat (va ekologik omillar) bilan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik zamonaviy ilmiy yondashuvlarda qanday talqin etiladi?	Nima uchun erta bolalik ta’limi shunchaki parvarish yoki maktabga tayyorlash bosqichi emas, balki “inson kapitaliga kiritiladigan eng samarali strategik sarmoya” hamda “strategik ijtimoiy institut” hisoblanadi?
2	Biz barchamiz o‘rganamiz: tarbiyachilar, oilalar va bolalar	Mavzuning asosiy g‘oyasini ifodalovchi “Biz barchamiz o‘rganamiz” tamoyiliga qaysi uch tomon kiradi?	Nima uchun an’anaviy pedagogikadagi “kattalar — bilim beruvchi, bola — qabul qiluvchi” qarashi zamonaviy maktabgacha ta’limda o‘zgartirildi?	Oila muhiti tushunchasining mazmunini tushuntiring va uning asosiy tarkibiy qismlarini sanab bering.	Maktabgacha ta’lim tizimida hamkorlik pedagogikasining mazmun-mohiyati nimadan iborat va u qanday asosiy g‘oyalarga tayanadi?	Oilaviy muhit (“Nima ichida o‘sayapti?”) va pedagogik yondashuv (“Qanday tarbiyalanayapti?”) bir-birini almashtirmasdan, qanday qilib o‘zaro to‘ldirishini tahlil qiling.
2	Biz barchamiz o‘rganamiz: tarbiyachilar, oilalar va bolalar	Zamonaviy yondashuvda bola ta’lim-tarbiya jarayonida qanday ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi?	Agar ota-ona va tarbiyachining talab hamda tarbiyaviy yondashuvlari bir-biriga zid bo‘lsa, bolaning xulq-atvori va moslashuvida qanday qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin?	Oila muhitining psixologik muhit va axloqiy-ma’naviy muhit tarkibiy qismlari bolaning qaysi jihatlarini shakllantiradi?	Ota-onaning tarbiya jarayonidagi o‘rniga nisbatan an’anaviy va zamonaviy pedagogik qarashlar o‘rtasida qanday o‘zgarish kuzatiladi?	Kommunikativ muhit tushunchasini faqat axborot almashish jarayoni emas, balki ijtimoiy-psixologik makon sifatida asoslab bering.
2	Biz barchamiz o‘rganamiz: tarbiyachilar, oilalar va bolalar	Tarbiyachi va ota-onaning hamkorlik jarayonidagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?	Nima sababdan ota-onalik “tayyor bilim bilan tug‘iladigan” holat emas, balki o‘rganiladigan mahorat hisoblanadi?	Pedagogik yondashuvlar deb nimaga aytiladi va ularning asosiy tarkibiy qismlari qaysilar?	Hamkorlik pedagogikasida “sinergetik ta’sir” tushunchasi qanday talqin etiladi va u nima uchun muhim?	“Tarbiyachi – ota-ona – bola” uch tomonlama sheriklik modelida har bir ishtirokchining funksiyasi qanday taqsimlanadi va u qanday natija beradi?
2	Biz barchamiz o‘rganamiz: tarbiyachilar, oilalar va bolalar	Birgalikda o‘rganishga asoslangan hamkorlik modeli qanday asosiy tamoyillarga tayanadi?	Maktabgacha ta’lim tashkilotini shunchaki bilim beriladigan maskan emas, balki “yagona o‘rganuvchi hamjamiyat” deb bilish hamkorlikka qanday ta’sir qiladi?	Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bilan rivojlantiruvchi yondashuvning o‘ziga xos jihatlarini taqqoslang.	Zamonaviy sharoitda hamkorlik qanday ijtimoiy sheriklik shakli sifatida kengaymoqda va unda qanday subyektlar ishtirok etishi mumkin?	Kommunikativ kompetentlikning tarbiyachi, ota-ona va bolaning o‘zida rivojlangan bo‘lishi muloqot madaniyati hamda nizolarni konstruktiv hal etishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2	Biz barchamiz o‘rganamiz: tarbiyachilar, oilalar va bolalar	Bolalarning tabiiy tadqiqotchilik va faollik orqali o‘rganish jarayoni qanday shakllarda kechadi?	Nima uchun hamkorlik jarayonida nazorat yoki tanqid o‘rniga o‘zaro hurmat va ishonch tamoyili ustuvor bo‘lishi kerak?	Faoliyatga asoslangan yondashuv va insonparvarlik yondashuvi maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishida qanday ahamiyat kasb etadi?	Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlashda hamda bolaning huquqlarini himoya qilishda ota-ona va tarbiyachi hamkorligining o‘rni qanday?	Muloqotda buyruq berish yoki nazorat qilish o‘rniga faol tinglash, emotsional qo‘llab-quvvatlash va demokratik munosabatlar ustuvor bo‘lsa, bolada qanday shaxsiy sifatlar shakllanadi?
2	Biz barchamiz o‘rganamiz: tarbiyachilar, oilalar va bolalar	Tarbiyachining o‘rganishi qaysi ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi?	Faol ishtirok tamoyiliga ko‘ra, bola o‘z yoshi va imkoniyatlariga mos ravishda hamkorlik jarayoniga qanday jalb etilishi lozim?	Hamkorlikka asoslangan yondashuv hamda individual yondashuvning bolani tarbiyalashdagi o‘rnini izohlang.	Nima uchun hamkorlikning maqsadi faqat ota-onani tadbirlarga jalb qilish emas, balki ularda ongli, mas’uliyatli va faol munosabatni shakllantirish hisoblanadi?	Nima uchun tarbiyachi, ota-ona va bola o‘rtasidagi samarali hamkorlik hamda kommunikativ muhit ta’lim sifati va bolaning kelgusi ta’lim bosqichlariga tayyorlanishining hal qiluvchi omili hisoblanadi?

3	Ijtimoiy tabaqa va maktabgacha ta’lim: tengsizlik muammolari.	Ijtimoiy tabaqalashuv (stratifikatsiya) tushunchasiga matnda qanday ta’rif berilgan?	Nima uchun ta’lim tizimi ijtimoiy tabaqalashuv jarayonida ham ijtimoiy lift, ham tengsizlikni takror ishlab chiqaruvchi rol o‘ynashi mumkin?	Maktabgacha ta’limda tengsizlikni keltirib chiqaruvchi iqtisodiy omillar (daromad darajasi va yashirin xarajatlar) qanday namoyon bo‘ladi?	Kognitiv va nutqiy tafovutlarni qisqartirishda kompensator pedagogik yondashuv, “skaffolding” (L.S. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” asosida) va dialogik muloqot qanday qo‘llaniladi?	Ta’lim imkoniyatlarining oilaning iqtisodiy ahvoli, yashash joyi va madaniy kapitaliga bog‘lanib qolishi jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni qanday qilib keyingi avlodga meros qoldiradi?
3	Ijtimoiy tabaqa va maktabgacha ta’lim: tengsizlik muammolari.	Sotsiologiyada jamiyatning qatlamlarga ajralishi qaysi to‘rtta asosiy omilga tayanadi?	Tabiiy tabaqalanish (jismoniy kuchga asoslangan), siyosiy tabaqalanish (feodalizm) va iqtisodiy tabaqalanish (kapitalizm) davrlarida insonning jamiyatdagi mavqei qanday farqlangan?	Xart va Risli tadqiqotlari asosida “30 million so‘z farqi” (nutqiy muhit tafovuti) maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?	Psixologik xavfsizlik va motivatsiyani qo‘llab-quvvatlashda “yorliq yopishtirish” (labeling) profilaktikasi hamda “o‘sish tafakkuri” (Growth Mindset) konsepsiyasining mohiyati nimadan iborat?	Maktabgacha bosqichda boshlangan “Matfey effekti” zanjirini uzish uchun ijtimoiy adolatga asoslangan qamrov, qisqa muddatli tayyorlov guruhlari va ota-onalar ma’rifati qanday uyg‘unlashtirilishi kerak?
3	Ijtimoiy tabaqa va maktabgacha ta’lim: tengsizlik muammolari.	Ta’lim va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi bog‘liqlik jamiyatda qanday ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi?	Markaziy Osiyo va o‘zbek jamiyati misolida qadimiy tabaqalanish va uning qoldiqlari (tribalizm, feodalizm sarqitlari) bugungi kunda qanday holatlarda uchraydi?	Geografik va hududiy tafovutlar (shahar va qishloq o‘rtasidagi farq, infratuzilma va o‘quv-metodik jihozlar ta’minoti) tengsizlikni qanday chuqurlashtiradi?	Tashkiliy-metodik va hamkorlik mexanizmlari sifatida differensial ta’lim, geterogen kichik guruhlarda kooperativ ta’lim, tengdoshlararo o‘zaro yordam (Peer-mentoring) va erta diagnostika-korreksiya qanday ishlaydi?	Ijtimoiy-iqtisodiy resurslar, geografik-infratuzilmaviy tafovutlar va madaniy kapital omillarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilib, qaysi omilga ta’sir ko‘rsatish eng tez ijobiy burilish berishini asoslang
3	Ijtimoiy tabaqa va maktabgacha ta’lim: tengsizlik muammolari.	Ijtimoiy tabaqa tushunchasining belgilovchi mezonlari qaysilar?	Nima uchun shaxsning faxrlanishi tug‘ma mansublikka yoki nasl-nasabga emas, balki hayotda erishgan haqiqiy yutuqlari va jamiyatga keltirgan nafiga asoslanishi kerak?	Institutsional va kadrlar bilan bog‘liq sabablar (malaka darajasi, guruhlarning me’yordan ortiq to‘lib ketishi, davlat va nodavlat sektor farqi) bolaga individual yondashuvga qanday ta’sir qiladi?	Baholash va qayta aloqa madaniyatini isloh qilishda mezoniy va formativ baholash, “jarayon + natija” muvozanati hamda konstruktiv qayta aloqa an’anaviy baholashdan nimasi bilan farq qiladi?	Pedagogik-psixologik mexanizmlar (xususan, kamsitishsiz muhit, formativ baholash va “o‘sish tafakkuri”) moddiy-iqtisodiy cheklovlar sharoitida ham bolaning ichki resurslarini qanday faollashtiradi?
3	Ijtimoiy tabaqa va maktabgacha ta’lim: tengsizlik muammolari.	Maktabgacha ta’lim bosqichi qaysi yosh oralig‘ini (3–7 yosh) qamrab oladi va u bolaning qaysi rivojlanish davri bilan bog‘liq?	“O‘tmishi va kelajagi buyuk ekanini ta’kidlab, buguni haqida qayg‘urmaslik”ni matnda kemani siljitishga oid qanday o‘xshatish bilan izohlanadi?	Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar (ATEB) bilan bog‘liq tengsizlikda maxsus sharoitlar, erta tashxis qo‘yish va ijtimoiy stigma qanday rol o‘ynaydi?	Raqamli va multimedia vositalardan adolatli foydalanishda "raqamli tafovut"ni qisqartirish uchun low-tech (past resursli) muqobillar qanday ahamiyatga ega?	Ota-onalarni nazorat yoki tanbeh obyektiga emas, balki teng huquqli hamkorga aylantirish oiladagi intellektual va emotsional muhitni qay darajada o‘zgartiradi?
3	Ijtimoiy tabaqa va maktabgacha ta’lim: tengsizlik muammolari.	“Matfey effekti” tushunchasi matnda qanday mazmunda izohlangan?	Boylik, shuhrat va mavqeni yutuq deb bilish bilan odamlarga naf keltirish o‘rtasidagi farqni mulohaza qilib ko‘rsating.	Emotsional-psixologik muhit (surunkali stress, “Men-konsepsiya”, o‘yin faoliyati sifati) hamda madaniy, til va raqamli omillar bolaning shaxsiy rivojlanishida qanday tafovutlar hosil qiladi?	Pedagogik refleksiya jarayonida yashirin qarashlarni (implicit bias) aniqlash, emotsional charchash (burnout) profilaktikasi hamda jamoaviy konsiliumlar tengsizlikni kamaytirishga qanday xizmat qiladi?	Nima uchun ta’limda ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlarni ta’minlash faqat alohida guruh ichidagi masala emas, balki butun jamiyatning inson kapitali sifati, birdamligi va barqaror taraqqiyotini belgilovchi strategik vazifa hisoblanadi?
4	Erta bolalikdagi gender tarbiyasi va gender rollarining shakllanishi	Jins (biologik jins) va gender tushunchalariga ta’rif bering	Nima uchun gender tarbiyasini erta va maktabgacha yoshdagi “sezgir davr”da olib borish bolaning kelajakdagi o‘ziga ishonchi va imkoniyatlarini baholashiga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatadi?	Lourens Kolbergning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, erta bolalikda gender tushunchalarining shakllanish bosqichlarini (gender belgilash / identifikatsiyasi, gender barqarorligi, gender doimiyligi) yosh xususiyatlari bilan izohlang.	Oila muhiti va tarbiya modellari (ota-onaning shaxsiy namunasi, muloqot ohangi, aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi ta’sir) gender rollarining ilk poydevorini qanday shakllantiradi?	Rivojlantiruvchi markazlarni «faqat o‘g‘il bolalarniki» yoki «faqat qiz bolalarniki» deb ajratmasdan, erkin tanlov va teng imkoniyatli muhit yaratish bolaning qobiliyat va qiziqishlarini qanday kengaytiradi?
4	Erta bolalikdagi gender tarbiyasi va gender rollarining shakllanishi	O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida gender tushunchasi qanday izohlangan?	Agar gender tarbiyasi tor va qotib qolgan qoliplar asosida olib borilsa, o‘g‘il bolalar va qiz bolalarning rivojlanishida qanday cheklovlar yuzaga kelishi mumkin?	Gender barqarorligi bosqichida vaqt bo‘yicha doimiylik bilan vaziyatga bog‘liqlik o‘rtasida qanday farq kuzatiladi?	Maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT) muhitida tarbiyachining nutqi, rivojlantiruvchi markazlarning tashkil etilishi va jamoat tadbirlaridagi rollar taqsimoti gender tasavvurlariga qanday ta’sir ko‘rsatadi?	Gender-sezgir (neytral va qo‘llab-quvvatlovchi) pedagogik nutq hamda his-tuyg‘ularni sog‘lom ifodalashga o‘rgatish bolaning emotsional intellekti va ruhiy salomatligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
4	Erta bolalikdagi gender tarbiyasi va gender rollarining shakllanishi	Gender tengligining asosiy tamoyillari qaysilar (teng huquqlilik, teng imkoniyatlar, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, adolatli munosabat, ijtimoiy faollik)?	Nima sababdan gender tengligi odamlarning tabiiy-biologik farqlarini inkor etish emas, balki ana shu farqlarni bahona qilib sun’iy to‘siqlar qo‘ymaslikni anglatadi?	Gender doimiyligi bosqichiga yetgan bolada tashqi atributlar (kiyim, soch turmagi, o‘yinchoq yoki faoliyat) o‘zgarsa-da, jinsning o‘zgarmasligini anglash qanday namoyon bo‘ladi?	Tengdoshlar guruhida bir jinsli o‘yin guruhlarining shakllanishi, o‘zaro rag‘batlantirish/cheklash va rollarni taqsimlash bolaning ijtimoiy tajribasiga qanday ta’sir etadi?	Rollarni almashtirib o‘ynash va pedagogik refleksiya (kimlarga ko‘proq so‘z berish va baholash xolisligini tahlil qilish) guruhdagi stereotiplarni kamaytirishda qanday amaliy samara beradi?
4	Erta bolalikdagi gender tarbiyasi va gender rollarining shakllanishi	Gender stereotiplari deb nimaga aytiladi?	“Faqat erkaklar rahbar bo‘lishi mumkin” yoki “qizlar texnik fanlarni yaxshi o‘zlashtira olmaydi” kabi qarashlarning biologik qonuniyat emas, balki stereotip ekanligini tushuntiring.	Bola o‘z jinsiga mos xulq-atvor va rollarni o‘zlashtirishda kuzatuv va taqlid (imitatsiya) (A. Bandura nazariyasi) hamda identifikatsiya mexanizmi qanday ishlaydi?	Zamonaviy raqamli sharoitda media va ommaviy axborot vositalari (multfilmlar, reklama, internet, mobil ilovalar) bolalarda gender obrazlarini qanday shakllantiradi va ularni pedagogik saralash nima uchun muhim?	Milliy madaniy qadriyatlar (odob-axloq, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat)ni asragan holda, zamonaviy teng imkoniyatlar tamoyiliga tayanish oila va ta’lim muhitida qanday uyg‘unlikni yaratadi?
4	Erta bolalikdagi gender tarbiyasi va gender rollarining shakllanishi	Ta’lim sohasida gender tengligining huquqiy poydevori sifatida matnda qaysi hujjatlar qayd etilgan?	Bugungi bolalarning oila va bog‘chadan tashqari multfilmlar, o‘yinchoqlar, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kontent orqali qabul qilayotgan gender signallari tarbiyaga qanday ta’sir ko‘rsatadi?	Mustahkamlash (rag‘batlantirish va cheklash) hamda o‘yin va syujetli-rolli faoliyat maktabgacha yoshda gender rollarini shakllantirishda qanday rol o‘ynaydi?	Madaniy muhit omili doirasida o‘zbek xalqiga xos oilaparvarlik, hurmat, mas’uliyat va kattalarga ehtirom qadriyatlarini gender tarbiyasi bilan uyg‘unlashtirish qanday ahamiyatga ega?	Bolaning shaxsiyatini qoliplardan ustun qo‘yish hamda ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi bolada sog‘lom gender o‘zligi va o‘ziga ishonchni qanday qaror toptiradi?
4	Erta bolalikdagi gender tarbiyasi va gender rollarining shakllanishi	Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender tenglik tushunchasi	Gender tengligini ta’minlash jamiyat taraqqiyoti va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda qanday ahamiyat kasb etadi?	Erta bolalikda gender rollarining namoyon bo‘lishida o‘yinchoqlar tanlovi, jinsiy segregatsiya (tengdoshlar guruhi) va emotsional ifoda qanday xususiyatlarga ega?	Individual yondashuv tamoyili maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini sog‘lom shakllantirishda qanday qo‘llaniladi?	Nima uchun gender tenglik ta’minlangan muhit inson kapitalining kengayishi, oila mustahkamligi va barqaror, adolatli jamiyat qurilishining muhim poydevori hisoblanadi?
5	Madaniyat, til va ta’limda adolatlilik	Madaniyat tushunchasiga ta’rif bering.	Nima uchun madaniyatshunoslik fanida madaniy-tarixiy davrlarni tahlil qilishda davrning yaxlit qiyofasi, insoniyat jamiyatining o‘rni va davr mazmunining bugungi kundagi ahamiyati birgalikda o‘rganiladi?	Tenglik va adolatlilik tushunchalari o‘rtasidagi farqni ta’lim jarayonidagi misollar yordamida tushuntiring.	Ta’limda tenglik, adolatlilik va inklyuzivlik tushunchalarining o‘zaro munosabatini tushuntiring.	Madaniyat, til va ta’lim o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qilib, ularning har biri jamiyat kamolotida qanday vazifani bajarishini asoslang
5	Madaniyat, til va ta’limda adolatlilik	Madaniyatshunoslik fanining asosiy tarkibiy tuzilishiga kiruvchi yo‘nalishlarni sanab bering	D.S. Lixachevning “Kishi qanchalik ziyoli bo‘lsa, u shuncha ko‘p tushunadi va o‘zlashtiradi...” degan fikri asosida ziyoli shaxsning madaniyatli odamdan farqini tushuntiring.	Pedagogik adolatlilikning matnda ko‘rsatilgan asosiy mezonlarini (teng huquqlilik, kamsitmaslik, ehtiyojlarni hisobga olish, baholashning xolisligi, ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyati) izohlang.	Nima uchun inklyuziv ta’lim o‘quvchini mavjud tizimga majburan moslashtirish emas, balki ta’lim muhitini turli ehtiyojlarga mos ravishda takomillashtirishni nazarda tutadi?	Nima uchun haqiqiy adolatlilik insonlarga shunchaki bir xil munosabatda bo‘lish bilan cheklanmasdan, har bir shaxsning millati, tili, madaniyati va individual ehtiyojlarini hisobga olishni talab etadi?

5	Madaniyat, til va ta’limda adolatlilik	Antropologlar dalillariga ko‘ra, madaniyatning qanday xususiyatlari farqlanadi?	Nima uchun madaniyatni faqat urf-odatlar va mezonlar yig‘indisi emas, balki inson taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijobiy qadriyatlar tizimi sifatida baholash lozim?	Tilning shaxs kamoloti va ta’lim jarayonidagi o‘rni qaysi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi?	Ko‘p tilli maktab misolida tenglik, adolatlilik va inklyuziv yondashuvning amaliy farqini ko‘rsating.	O‘quvchining o‘z ona tilida so‘zlashgani yoki talaffuzidagi farqlar sababli kamsitilishi uning o‘ziga ishonchi, ta’limga munosabati va ijtimoiy moslashuviga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatadi?
5	Madaniyat, til va ta’limda adolatlilik	Adolatlilik tushunchasini izohlang	Abu Nasr Forobiyning “Baxt-saodatga erishuv haqida” risolasidagi fikrlarga tayangan holda, inson kamolotida jamoa va fozil jamiyatning o‘rnini izohlang	O‘quvchi ta’lim tilini yetarli darajada tushunmasa, bu holat uning fanlarni o‘zlashtirishi va bilimini namoyon etishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?	Ta’limda adolatlilikni ta’minlashga to‘sqinlik qiluvchi tizimli omillarni (moddiy-texnik farqlar, kadrlar tayyorgarligi, o‘quv materiallari, raqamli imkoniyatlar, kamsitish va moslashtirilgan muhit) sanab o‘ting.	Ko‘p tillilikni rivojlantirish shaxsning bilim doirasi, madaniyatlararo bag‘rikengligi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini qanday kengaytirishini baholang.
5	Madaniyat, til va ta’limda adolatlilik	O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 5- va 33-moddalarida qanday masalalar belgilangan?	Turli xalqlarda salomlashuv va mehmondorchilik odoblarining farqlanishini misollar asosida tahlil qilib, universal va milliy madaniy xususiyatlarning uyg‘unligini ko‘rsating.	Tilning ijtimoiy mavqeyi masalasi jamiyatdagi imkoniyatlar va to‘siqlar bilan qanday bog‘liq?	Nima sababdan adolatli ta’lim siyosati faqat ta’lim muassasasiga kirish imkoniyatini yaratish bilan cheklanmasligi kerak?	Jamiyatda madaniyat va adolatlilik uyg‘unlashganda millatlararo totuvlik, inson huquqlari hurmati va mas’uliyat tamoyillari qanday mustahkamlanadi?
5	Madaniyat, til va ta’limda adolatlilik	UNESCOning ko‘p tilli ta’lim bo‘yicha 2025-yilda e’lon qilingan xalqaro qo‘llanmasida ko‘p tillilik qanday talqin etiladi?	Nima sababdan madaniy taraqqiyotda o‘tmish madaniy merosini asrash bilan birga, boshqa xalqlar madaniyatiga bag‘rikenglik bilan yondashish muhim hisoblanadi?	Adolatli til siyosatida davlat tilining rivojlanishi, ona tilini asrab-avaylash hamda xorijiy tillarni o‘rganish bir-birini qanday to‘ldiradi?	Ta’limdagi tizimli to‘siqlar va tengsizliklarni bartaraf etishda davlat siyosati, pedagoglar, ota-onalar va keng jamoatchilik hamkorligi qanday rol o‘ynaydi?	Nima uchun madaniyat, til va ta’limda adolatlilikni ta’minlash faqat davlat yoki ta’lim muassasalarining emas, balki oila, mahalla va butun jamiyatning umumiy mas’uliyati hisoblanadi?
6	Oila tuzilmalari, mahalla va norasmiy ta’lim	Sotsializatsiya tushunchasiga matnda qanday ta’rif berilgan?	Kengaytirilgan (katta) oilalarda norasmiy ta’limning tabiiy ravishda amalga oshishi nimada namoyon bo‘ladi?	Oiladagi ruhiy muhitni belgilovchi asosiy psixologik omillarni (er-xotin munosabatlari, hissiy empatiya, nizolarni hal qilish uslubi, rollar va mas’uliyat taqsimoti) izohlang.	Nima uchun bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida yoshlar tarbiyasida faqat oila yoki maktabning kuchi yetarli emas va “Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligi zarur?	Oila tuzilmasining shakli (yadroaviy yoki kengaytirilgan) qanday bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zaro ishonch va emotsional empatiyaning bolaning dunyoqarashi va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishidagi hal qiluvchi o‘rnini asoslang.
6	Oila tuzilmalari, mahalla va norasmiy ta’lim	Shaxs sotsializatsiyasida qaysi uchta asosiy institut o‘zaro uzviy bog‘liqlikda harakat qiladi?	Urbanizatsiya va globallashuv sharoitida yadroaviy (nuklear) oilalar ko‘payishi bilan farzand tarbiyasida qanday o‘zgarishlar va cheklovlar yuzaga kelishi mumkin?	Hissiy empatiyaning mavjudligi yoki yo‘qligi oila a’zolarining ichki holatiga (masalan, “psixologik yolg‘izlik”ka) qanday ta’sir ko‘rsatadi?	Tizimli-funksional modelda “Mahalla yettiligi” va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik (muammoni erta aniqlash klasteri va oilaviy muhit monitoringi) qanday yo‘lga qo‘yiladi?	Mahallani o‘zbek jamiyatida oilaviy munosabatlarni himoya qiluvchi “ijtimoiy qalqon” hamda oila va rasmiy institutlar o‘rtasidagi “oltin ko‘prik” sifatida baholab, uning sotsial muvozanatni saqlashdagi ahamiyatini tahlil qiling.
6	Oila tuzilmalari, mahalla va norasmiy ta’lim	Rasmiy ta’lim bilan norasmiy ta’lim va ijtimoiy muhitning shaxs rivojlanishidagi o‘rni qanday farqlanadi?	To‘liqsiz oilalarda bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi va norasmiy ta’lim olishida yuzaga keladigan bo‘shliqlarni to‘ldirishda mahalla qanday rol o‘ynaydi?	Mahalla institutining oilaviy ruhiy muhitni sog‘lomlashtirishdagi asosiy yo‘nalishlarini (oilaviy nizolarni jamoatchilik orqali yumshatish, yolg‘izlik va izolyatsiyani oldini olish) tushuntiring.	Sotsiomadaniy va amaliy modelda mahalla hududlari qanday qilib norasmiy ta’lim klasterlariga (markazlar, to‘garaklar, ota-onalar universitetlari) aylanmoqda?	Norasmiy ta’lim (ustoz-shogird, oilaviy mehnat saboqlari, mahalla to‘garaklari) rasmiy ta’limdagi akademik bilimlarni hayotiy ko‘nikmalar (soft skills), mehnat axloqi va muloqot madaniyati bilan qanday to‘ldirishini ko‘rsating.
6	Oila tuzilmalari, mahalla va norasmiy ta’lim	Zamonaviy sotsiologiyada oila tuzilmalari qanday asosiy turlarga ajratiladi?	Nima uchun oiladagi ruhiy muhitning sog‘lomligi nizoning mutlaqo yo‘qligida emas, balki nizolarni hal qilish uslubida ko‘rinadi?	Mahallaning asosiy pedagogik va sotsial funksiyalarini (ijtimoiy nazorat, an’analar va qadriyatlarni translyatsiya qilish, profilaktik funksiya) sanab o‘ting va izohlang.	Raqamli integratsiya modelida elektron platformalar (masalan, “e-maktab”, “Yoshlar daftari”) ota-onalar, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini qanday mustahkamlaydi?	Insonning butun umri davomida oila va mahalla muhitida norasmiy ta’lim olishi uning jamiyatning faol va mas’uliyatli a’zosiga aylanishiga qanday xizmat qilishini baholang.
6	Oila tuzilmalari, mahalla va norasmiy ta’lim	Oilaning ruhiy holati (psixologik iqlimi) deb nimaga aytiladi va u shartli ravishda qanday ikki turga bo‘linadi?	Nosog‘lom oilaviy muhitda ulg‘ayish bolaning ruhiy salomatligi, o‘ziga ishonchi va xulq-atvoriga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?	Ta’lim sotsiologiyasida ta’limning qaysi uchta shakli farqlanadi (formal, no-formal, informal) va norasmiy ta’limning mohiyati nimadan iborat?	Zamonaviy sharoitda ota-onalar universitetlarida yosh ota-onalarga qanday dolzarb masalalar (jumladan, gajetga qaramlik / kiber-asabiyat muammolari) yuzasidan ko‘mak beriladi?	Global madaniyatlar to‘qnashuvi va raqamli texnologiyalar sharoitida milliy o‘zlikni saqlab qolgan holda barkamol shaxsni tarbiyalash uchun oila, mahalla va norasmiy ta’lim tizimlarini qanday qilib yaxlit mexanizmga birlashtirish mumkin?
6	Oila tuzilmalari, mahalla va norasmiy ta’lim	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-sonli Farmonida qaysi institutning jamiyatdagi roli va faoliyati belgilangan?	Nima sababdan oila kattalar uchun “psixologik boshpana” hisoblanadi va uydagi ruhiy barqarorlik er-xotinning mehnat unumdorligiga qanday ta’sir qiladi?	Oila va mahalla tizimida norasmiy ta’limning asosiy kanallarini (ustoz-shogird an’anasi, klub va to‘garaklar faoliyati, oilaviy norasmiy ta’lim) tavsiflang.	Muammoli oilalar farzandlari bilan ishlashda pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish va ijtimoiy sheriklik mexanizmlari bolaning ta’limdan uzilib qolmasligini qanday ta’minlaydi?	Nima uchun oiladagi ruhiy barqarorlikni ta’minlash, mahalla salohiyatidan foydalanish va norasmiy ta’limni zamonaviy modellar asosida birlashtirish bugungi kunning strategik vazifasi hisoblanadi?
7	Erta bolalikdagi bag‘rikenglik tarbiyasi va millatlararo totuvlik.	1995-yil 16-noyabrda UNESCO tomonidan qabul qilingan “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”ga ko‘ra bag‘rikenglik (tolerantlik) tushunchasiga qanday ta’rif berilgan?	Nima uchun zamonaviy ilm-fanda tolerantlik shunchaki “sabr qilish” yoki begona madaniyatga “beparvo chidab turish”ni anglatmaydi?	J. Finni va M. Barrett tadqiqotlariga ko‘ra, bolalarda milliy va madaniy xilma-xillikni anglash bosqichlarini (3–4 yosh, 5–6 yosh, 7 yosh) izohlang.	Polikultural o‘yin faoliyatida turli xalqlarning an’anaviy o‘yinlaridan (“Oq terakmi, ko‘k terak”, “Rucheyek”, “Ko‘k bo‘ri” elementlari) foydalanish bolalarda qanday ko‘nikmalarni shakllantiradi?	Globallashuv va geosiyosiy ziddiyatlar kuchaygan sharoitda erta bolalikdagi bag‘rikenglik tarbiyasini kelajakdagi etnik, diniy va ijtimoiy mojarolarning oldini oluvchi sotsial xavfsizlik kafolati sifatida asoslang.
7	Erta bolalikdagi bag‘rikenglik tarbiyasi va millatlararo totuvlik.	Pedagogik nuqtayi nazardan bag‘rikenglik qanday darajalarda (shaxsiy, mikrosotsial, makrosotsial) namoyon bo‘ladi?	Nima sababdan “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da tolerantlik faqat ma’naviy burch emas, balki huquqiy va siyosiy zaruriyat ham deb ko‘rsatilgan?	3–4 yoshdagi bolalarning tashqi ko‘rinishdagi farqlarni payqashi bilan 5–6 yoshdagi barqaror etnik identifikatsiya o‘rtasida qanday farq mavjud?	Interaktiv ertak-pedagogika va davra suhbatlari (“Nega qahramonlar bir-biriga yordam berdi?”) bolalarda do‘stlik, hamkorlik va adolat tushunchalarini qanday rivojlantiradi?	3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrda ijobiy etnik va madaniy tasavvurlar shakllantirilmasa, maktab yoshida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan salbiy stereotiplar va ksenofobiyani o‘zgartirish nima uchun qiyin kechishini tahlil qiling.
7	Erta bolalikdagi bag‘rikenglik tarbiyasi va millatlararo totuvlik.	Bugungi kunda O‘zbekistonda nechtadan ortiq millat va elat vakillari hamda nechta diniy konfessiya a’zolari ahil-inoq yashab kelmoqda?	“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va davlat siyosatida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash jamiyat barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?	Lev Vigotskiyning “Madaniy-tarixiy nazariyasi” asosida interpsixik va intrapsixik jarayonlarning bag‘rikenglik shakllanishidagi o‘rnini tushuntiring.	Tolerantlik darslarining emotsional-empatik bosqichida rolli o‘yinlar va vaziyatli keyslar (“Agar sening tilingni hech kim tushunmasa, o‘zingni qanday his qilasan?”) qanday pedagogik samara beradi?	“Rangli qo‘g‘irchoqlar va guruhdagi rad etish” yoki “Oilaviy stereotip va bolaning bog‘chadagi xulqi” kabi vaziyatlarda tarbiyachi, ota-ona va mahalla hamkorligini qanday qilib samarali tashkil etish mumkin?
7	Erta bolalikdagi bag‘rikenglik tarbiyasi va millatlararo totuvlik.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddalari barcha fuqarolarning millati, tili va dinidan qat’i nazar, qonun oldida tengligini kafolatlaydi?	Maktabgacha yoshdagi bolada egotsentrizmdan allotsentrizmga o‘tish jarayonida empatiya (hamdardlik) hissi qanday ahamiyat kasb etadi?	O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-595) va “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”da bag‘rikenglik tarbiyasi qanday o‘rin tutadi?	“Oila – Maktabgacha ta’lim – Mahalla” triadasining hamkorlik konsepsiyasida har bir institutning o‘ziga xos funksiyasini (metodik va tizimli tarbiya, birlamchi namuna va emotsional asos, sotsiomadaniy makon va amaliyot) tushuntiring.	Nima uchun milliy xilma-xillikka hurmatni shakllantirish faqat alohida darslar bilan cheklanmasdan, bolaning o‘yin, mehnat, ijodiy va kundalik muloqot faoliyatiga singdirilgan polikultural ta’lim muhitiga aylanishi shart?

7	Erta bolalikdagi bag‘rikenglik tarbiyasi va millatlararo totuvlik.	Millatlararo totuvlik tushunchasi shunchaki nizolarning yo‘qligi emas, balki matnda qanday asosiy jihatlar bilan izohlangan?	Nima uchun 5–6 yosh davrida kattalarning salbiy gaplari yoki mediamuhit ta’sirida bolada ilk etnik stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlar paydo bo‘lish xavfi kuchayadi?	MTTda multikultural va polikultural ta’lim muhitini yaratish vositalarini (“Dunyo xalqlari madaniyati” burchaklari, interaktiv ertak-pedagogika, polikultural o‘yin faoliyati) tavsiflang.	Bolada bag‘rikenglik hissi bog‘chada shakllanib, oilada unga zid munosabat ko‘rinsa, yuzaga keladigan kognitiv dissonans (ichki ziddiyat) qanday bartaraf etiladi?	Oila, MTT va mahalla o‘rtasida bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashda “Oilada bag‘rikenglik darslari” ochiq maslahatxonalari hamda mahalla bayramlarida birgalikda ishtirok etish qanday yaxlit ta’sir ko‘rsatadi?
7	Erta bolalikdagi bag‘rikenglik tarbiyasi va millatlararo totuvlik.	J. Piaje nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalarga xos egotsentrizm nima va uning o‘rniga qanday xususiyat shakllantirilishi kerak?	Lev Vigotskiyning “Madaniy-tarixiy nazariyasi”ga tayangan holda, oila va bog‘chadagi muhit bolada bag‘rikenglik sifatining shakllanishiga qanday ta’sir etishini tushuntiring.	Tolerantlik darslarida qo‘llaniladigan uslubiy bosqichlarni (sensor-tanishuv, emotsional-empatik, xulq-atvorli) maqsadi va metodlari bilan birga sanab bering.	Oiladagi bag‘rikenglik iqlimi va mahallaning polikultural tadbirlari (“Do‘stlik va sotsial hamjihatlik festivali”, “Navro‘z”,) bolaning hayotiy tajribasini qanday boyitadi?	Erta bolalikda bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik madaniyatini shakllantirish bolaning shaxsiy rivojlanishi hamda jamiyatdagi hamjihatlik uchun qanday strategik ahamiyatga ega ekanligini umumlashtiring.
8	MTT siyosati, islohotlar va global tendensiyalar	Jeyms Xekman tomonidan ishlab chiqilgan “Xekman egri chizig‘i” (Heckman Equation) modeliga ko‘ra, inson hayotining dastlabki 5 yilida kiritilgan har 1 dollar sarmoya kelajakda jamiyatga qancha iqtisodiy naf keltiradi?	Nima uchun zamonaviy iqtisodiyot va sotsiologiyada maktabgacha ta’lim faqat parvarish muassasasi emas, balki inson kapitaliga kiritiladigan yuqori samarali investitsiya sifatida baholanadi?	“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonunning mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy prinsiplarni sanab o‘ting va izohlang.	Zamonaviy global pedagogik makonda ustuvor ahamiyat kasb etayotgan “bola huquqlariga asoslangan yondashuv” (Rights-based approach)ning mohiyatini tushuntiring.	O‘zbekistonning maktabgacha ta’lim modelida jahondagi ilg‘or tajribalar (Janubiy Koreya tajribasi, Reggio Emilia, Montessori, Waldorff, STEAM) bilan milliy qadriyatlarning sintezi “Ilk qadam” dasturida qanday mujassamlashganini asoslang?
8	MTT siyosati, islohotlar va global tendensiyalar	Bola miya neyron aloqalarining necha foizi 5 yoshgacha bo‘lgan davrda shakllanadi?	Agar 5 yoshgacha bo‘lgan davrda bolaga to‘g‘ri sensor, emotsional va kognitiv rag‘bat berilmasa, keyingi ta’lim bosqichlarida bu bo‘shliqni to‘ldirish nima uchun qiyinlashadi?	Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining asosiy shakllarini (nodavlat MTTlar uchun imtiyozli shartlar, subsidiyalash tizimi, oilaviy MTTlar instituti) tavsiflang.	Reggio Emilia yondashuvi (“yuzta til”, atrof-muhitning “uchinchi tarbiyachi”ligi) milliy “Ilk qadam” dasturiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?	Maktabgacha ta’lim tizimining miqdoriy qamrovni kengaytirish bosqichidan “Sifat bosqichi” (Quality assurance)ga o‘tishida pedagoglar malakasi, dasturlar samaradorligi va rivojlanish monitoringining o‘rnini tahlil qiling
8	MTT siyosati, islohotlar va global tendensiyalar	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida fuqarolarning qanday huquqi va davlatning qanday kafolati mustahkamlangan?	“Ilk qadam” dasturining an’anaviy “bilim-ko‘nikma-malaka” (ZUN) modelidan voz kechib, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvga o‘tishi ta’lim jarayonini qanday o‘zgartiradi?	Oilaviy MTTlar institutining chekka qishloqlar va tog‘li hududlarda infratuzilma muammosini hal qilishdagi o‘ziga xos jihatlarini tushuntiring	Montessori pedagogikasi (“Menga buni o‘zim bajarishimga yordam ber”) tamoyillari guruh xonalari va didaktik muhitni tashkil etishda qanday aks etadi?	Inklyuziv ta’lim nafaqat imkoniyati cheklangan bolaga, balki sog‘lom tengdoshlariga ham rahm-shafqat, yordam berish va tolerantlik madaniyatini o‘rgatuvchi jonli amaliyot ekanligini isbotlang.
8	MTT siyosati, islohotlar va global tendensiyalar	“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonunning 31-moddasiga ko‘ra, maktabga kirishdan necha yil oldin majburiy maktabgacha tayyorgarlikdan o‘tish huquqi va davlat kafolati belgilangan?	Majburiy bir yillik tayyorlov tizimi bolalarning maktab boshlang‘ich sinflarida o‘qishga kirishdagi start imkoniyatlarini qanday tenglashtiradi?	2017-yilgacha bo‘lgan davr bilan 2020-yillarning o‘rtalaridagi qamrov darajasi (umumiy qamrov va 6 yoshli bolalar qamrovi) dinamikasini matn ma’lumotlari asosida taqqoslang.	Waldorff pedagogikasi (tabiat bilan uyg‘unlik, sun’iy vositalarni cheklash) va STEM / STEAM paradigmasining maktabgacha ta’limdagi o‘ziga xos jihatlarini solishtiring.	Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda byudjet subsidiyalari, imtiyozli kreditlar va oilaviy bog‘chalarning o‘zaro muvozanatini baholang
8	MTT siyosati, islohotlar va global tendensiyalar	“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”ga muvofiq maktabgacha ta’lim jarayoni bolaning qaysi rivojlanish sohalari kesimida bo‘linadi?	Nima sababdan 2017-yilda alohida vazirlik tashkil etilishi va keyinchalik Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimiga integratsiya qilinishi islohotlarda muhim bosqich bo‘ldi?	“Aqlvoy” mobil bog‘chalari (Mobil MTT) qanday texnik jihozlar va imkoniyatlarga ega hamda qanday tartibda faoliyat yuritadi?	Ta’limda EdTech, “Aqlvoy” mobil ilovalari, sun’iy intellekt elementlariga ega aqlli o‘yinchoqlar va geymifikatsiya bolalarning bilish jarayonlarini qanday faollashtiradi?	Raqamli ta’lim resurslari va sun’iy intellekt imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, bolalarni “kiber-makondan” va haddan tashqari ekran ta’siridan himoya qilish strategiyasini asoslang.
8	MTT siyosati, islohotlar va global tendensiyalar	“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi necha yoshdan necha yoshgacha bo‘lgan bolalarni rivojlantirishga qaratilgan?	Qisqa muddatli guruhlar va “Aqlvoy” mobil bog‘chalari chekka hamda infratuzilma cheklangan hududlardagi bolalar uchun qanday amaliy qulaylik yaratadi?	Pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi transformatsiyalarni (qabul kvotalari va ta’lim shakllari, Puchon universiteti filiali, Avloniy nomidagi milliy institut va “Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasi) izohlang.	BMTning BRM-4 (SDG-4) maqsadi va uning 4.2-vazifasida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va ta’limi bo‘yicha qanday maqsad belgilangan?	Nima uchun inklyuziv ta’lim g‘oyalarini jamiyat ongiga chuqurroq singdirish va har bir bolaga teng start imkoniyati yaratish maktabgacha ta’lim siyosatining kelajakdagi strategik vazifasi bo‘lib qoladi?
8	MTT siyosati, islohotlar va global tendensiyalar	“Ilm yo‘li” variativ dasturi qaysi yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashga mo‘ljallangan va haftasiga necha soatlik o‘quv yuklamasiga ega?	Oliy ta’limda kechki, sirtqi va maxsus sirtqi ta’lim shakllarining joriy etilishi amaldagi tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?	Puchon universiteti (Bucheon University) filialida talabalar qanday tizimlar (“3+1” va “2+1”) asosida ta’lim oladilar va buning ahamiyati nimada?	Inklyuziv ta’limning mohiyatini ochib bering: u o‘quvchini tizimga moslashtirish emas, balki ta’lim muhitini moslashtirish ekanligini izohlang.	“Xekman egri chizig‘i” iqtisodiy modeli va 5 yoshgacha bo‘lgan davrda miya neyron aloqalarining 85–90 foizi shakllanishiga tayangan holda, erta yoshdagi ta’limga kiritilgan sarmoyaning davlat byudjeti, ta’lim samaradorligi va jamiyat taraqqiyotidagi uzoq muddatli iqtisodiy-ijtimoiy samarasini tahlil qiling
8	MTT siyosati, islohotlar va global tendensiyalar	BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining 4-maqsadi (BRM-4 / SDG-4) qanday nomlanadi?	Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tavsiyasiga ko‘ra, 2–5 yoshli bolalar uchun gadjetlar vaqtini kuniga 1 soatdan oshirmaslik nima uchun muhim?	“Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimi” (MTEBAT / HEMIS) qanday jarayonlarni avtomatlashtiradi va elektron nazorat qiladi?	Milliy ta’lim siyosatida inklyuzivlikni ta’minlash choralarini (to‘siqsiz muhit, kombinatsiyalashgan va moslashuvchan guruhlar / tyutor, ijtimoiy tolerantlik) tavsiflang.	Maktabgacha ta’lim siyosatida davlat, xususiy sektor, pedagoglar va jamiyatning birgalikdagi harakati orqali to‘siqsiz muhit, malakali kadrlar va raqamli xavfsizlikni uyg‘unlashtirish kelajak avlodning inson kapitali sifatini qanday belgilashini asoslang.